




O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI PIRLS XALQARO BAHOLASH JARAYONLARIGA TAYYORLASH

Usmonova.D.K Andijon viloyati pedagogik mahorat
markazi metodisti

O'ylamasdan o'qish
bekorchilik, lekin o'qimasdan
o'ylash ham xatodir.

Konfutsiy



REJA



PIRLS baholash dasturi haqida qisqacha

- Boshlang'ich sinf o'qish darslarida **PIRLS**ga tayyorlovning zarurligi
- **PIRLS**ga tayyorlashda qo'llaniladigan metodlar haqida

PIRLS



- bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholaydigan xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, har besh yilda bir marta o'tkaziladi va ta'lim siyosatini takomillashtirish uchun ma'lumot beradi. Uning to'liq nomi Progress in International Reading Literacy Study bo'lib, o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashga qaratilgan.

PIRLS haqidagi ko'proq ma'lumotni pirls2021.org silkasi orqali olishingiz mumkin.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA PIRLSGA TAYYORLOVNING ZARURIYATI

— o'quvchilarda
matnni tahlil
qilish,

— asosiy g'oyani
aniqlash

— dalillarni
solishtirish;

— mantiqiy
xulosa chiqarish
kabi
ko'nikmalarni
shakllantirish;

O'qish darslari
orqali tanqidiy va
kreativ fikrlashni
rivojlantirishda
muhim
ahamiyatga ega.

O'quvchilarni PIRLS xalqaro baholash dasturida yuqori natijalarga erishish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

PIRLS-2026 tadqiqotlarida elektron tarzda ishtirok etilishini inobatga olib, o'quvchilarning kompyuter savodxonligini yaxshilash.

IJODKORLIK

O'quvchilarni kreativ fikrlashga undash



TAHLIL QILISH

"Nima uchun bunday qilyapman?", mazmunida tahlil o'tkazish

NATIJALARNI BAHOLASH

Ishning natijasini aniqlab, unga baho berish

PIRLS 2026 asosiy xususiyatlari

To'liq raqamli baholashga o'tishni yakunlaydi

O'quvchilar rang-barang matnlarni aylanib chiqishlari va ustiga bosishlari va savollarga javob berishlari mumkin bo'lgan innovatsion interfeysdan foydalanadi


Simulyatsiya qilingan veb-saytlar asosida PIRLS vazifalarini birlashtiradi

O'quvchilar o'qishni o'rganadigan uy va maktab konteksti haqida ma'lumot to'playdi

Raqamli baholash jarayon ma'lumotlarini chuqur tushunishga yordam beradi

Tasvirlarni avtomatlashtirilgan baholash va qisqa tuzilgan javoblardagi tadqiqotlarni kengaytiradi

O‘QUVCHILARNI PIRLSGA TAYYORLASHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR:



✓ “Qiziqarli savollar” metodi

“Rasmlarni matnga moslashtiring” metodi

✓ “INSERT” strategiyasi

“Voqealar ketma ketligini toping” metodi

✓ “Danakning mag’zi ”


“To’rt tomon” metodi

✓ “Venn diagrammasi”

“Beshinchisi ortiqcha” metodi

✓ “Fishbone”

“ ... kabi ” metodi



O'quvchilarni jalb qiluvchi, o'ylashga undovchi savollar yordamida o'rganish. Har bir matn asosida ijodiy va mantiqiy savollar berish.

METODNING AFZALLIKLARI

Diqqatni oshiradi

Matnni tahlil qilishga o'rgatadi

Fikrlashni rivojlantiradi

Javobni asoslashga undaydi

Amaliy misollar

Matn: "Quvnoq qushcha"

Oddiy savol:

Qushcha qayerda yashaydi?

Qiziqarli savol:

Agar sen qush bo'lsangiz, qanday joyda yashashni xohlarding? Nega?

Matn: "Bahor fasli"

Oddiy savol: Bahor faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Qiziqarli savol:

Agar bahor bir odam bo'lsa, uning fe'l-atvori qanday bo'lardi?

Amaliy tavsiyalar

Har hafta kamida bir marta "Savol-javob mashg'uloti" tashkil qiling


Matndan keyin ochiq savollar bering

O'quvchilarning o'z savollarini o'ylab topishini rag'batlantiring

Javoblarini baholash muhim emas, ularni muhokama qiling.

“INSERT” strategiyasi

• INSERT – matn ustida faol ishlash strategiyasi

Belgilar	Ma'nosi	Misollar
	Bilgan ma'lumotim	Quyosh issiqlik manbai
	Yangi ma'lumot	Quyoshda portlashlar bo'ladi
	Qarshi fikrim	Quyosh tunda ham nur taratadi — bu noto'g'ri
	Tushunarsiz joy	Quyoshda portlashlar qanday kechadi?

INSERT METODINING QO‘LLASH USULLARI

Belgilarni qo‘yish talab etiladi

Ma‘lumotni qo‘yish talab etiladi.

Quyoshda portlashlar bo‘ladi



Quyosh issiqlik manbai



Quyoshda portlash qanday kechadi?



Quyosh tunda ham nur taratadi(bu no‘to‘g‘ri)



“Klaster” (Aqliy xarita) metodi MARKAZIY TUSHUNCHA

Belgi va xususiyatlari

- **Belgi va xususiyatlari**


Belgi va xususiyatlari

- **Belgi va xususiyatlari**

“Yetti xazinaning biri” hikoyasi qahramoni Sardor

- Mehnatkash va dono.
- Do‘stiga yordamchi.
- To‘g‘ri so‘z, halol.
- Yangi narsalarni o‘rganishga intiluvchi.
- Yangi narsalarni o‘rganishga intiluvchi.
- O‘z orzusiga sodiq.

“Venn diagrammasi”



“QANOT QOQQAN ORZULAR” HIKOYASI

Nusratjon

Mehnatkash, sabrli, halol bola

👤 Bobosidan hunarni

oʻrgangan

🎯 Maqsad sari intiladi

😞 Baxtsiz hodisadan soʻng ham tushkunlikka tushmaydi

🌙 Uch kecha uxlamay ishlaydi

🎁 Mustaqil ravishda hushtaklar yasaydi

🏆 Tanlovda gʻolib boʻladi

☐ Hech kimdan shikoyat qilmaydi

Oʻxshash jihatlar :

👤 Ikkalasi ham oʻquvchi

🕒 Hikoyada muhim burilish nuqtasini boshdan kechirishadi

📍 Maktabda voqea sodir boʻladi

☐ Jismoniy yoki ruhiy zarba olishadi

🗨️ Hayot saboqlari bilan yuzlashadilar

Ahmad

😞 Bezoriligi bilan tanilgan

🗨️ Boshqalarni mensimaydi


😞 Nusratning mehnatini qadrlamaydi

🗨️ Tanlovda qatnashmaydi

☐ Zinalardan yiqilib, jarohat oladi

😞 Hayot unga saboq beradi (bilvosita)

“FISHBONE” TEXNOLOGIYASI



“FISHBONE” METODI

Fishbone – sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga yordam beruvchi grafik tahlil usuli.

Ishlab chiqqan: Kaoru Ishikawa (sifat menejmenti mutaxassisi)

Maqsad: muammo (yoki natija)ga olib keluvchi sabablarni aniqlash va tahlil qilish

PIRLS doirasida: o'quvchilarning tushunmagan matnlarini yoki noto'g'ri javoblarini chuqur tahlil qilishda ishlatiladi.

3 ta asosiy bosqichga ega:

Fishbane texnologiyasi – bu:
O‘quvchini o‘ylashga, mantiqiy fikrlashga
va muammoni hal qilishga o‘rgatuvchi
o‘quv jarayonini tashkil etish usuli.

**1. O‘rgatish (Tushunish
bosqichi)**

**2. Amaliyot (Mashq
qilish)**


**3. Mustahkamlash
(Natijani tahlil qilish)**

FISHBONE TEXNOLOGIYASI ORQALI


- **Matnni tushunmaslik sabablarini o'zlari tahlil qiladi.**

- **Matn mazmunini chuqur tahlil qilishni o'rganadi.**

- Har bir noto'g'ri javob ortidagi sababni izlab topadi.
- Savol-javob orqali fikrini aniq ifodalashni rivojlantiradi.
- Mantiqiy fikrlash, tahliliy savol-javob qilishga o'rganadi.
- Har bir matndan asosiy g'oya va dalillarni ajratib olishni mashq qiladi.




**Kasb qanday
tanlanadi?**




“RASMLARNI MATNGA MOSLASHTIRING” METODI

Qanday qoʻllaniladi:

Oʻqituvchi
matnga oid
rasm yoki
suratlar
tanlaydi.







Oʻquvchilar
rasmga qarab
matnning
mazmunini
taxmin
qilishadi.



Matn
oʻqilgach,
rasm bilan
taqqoslash
ishlari amalga
oshiriladi

“RASMLARNI MATNGA MOSLASHTIRING” METODI



ILMSIZLIK ZULMATI

Qadim zamonda o‘qish va yozishni yomon ko‘radigan bir bola bo‘lgan ekan. U turli bahonalar bilan maktabga bormas, borganda ham berilgan vazifalarni bajarmay, faqat yomon baho olar ekan. Ota-onasining tanbehlariga quloq solmay, “Men katta bo‘lsam, cho‘pon bo‘laman, qo‘y boqish uchun o‘qish kerak emas”, der ekan.

Bir kuni u uylari yaqinidagi o‘tloqdan qo‘ziqorin terib yurib ancha uzoqlashib ketibdi. Yurib-yurib uncha chuqur bo‘lmagan bir daryo sohiliga kelib qolibdi. Narigi sohildan qo‘ziqorin termochi bo‘lib ko‘prik oldiga borib qarasa, uning chetidagi taxtachaga nimadir yozib qo‘yilgan ekan. Bola yozuvni o‘qimabdi va ko‘prikdan narigi sohilga qarab yuribdi. Ko‘prikning o‘rtasiga kelganda u sinib, bola suvga tushib ketibdi.

Qo'rqqanidan ovozinig boricha baqirib odamlarni yordamga chaqiribdi. Yaxshiyam shu orada cho'pon qo'ylarini o'tlatib yurgan ekan. U darrov tayog'ini uzatib, bolani suvdan chiqarib olibdi. Keyin "Nega undan o'tding?! Ko'prik ustiga "Bu yerdan yurmang, nariroqda yangi ko'prik bor", degan yozuvni ko'rmadingmi?" deb so'rabdi. Bola unga javoban: Ko'rdim, lekin o'qimadim, chunki men o'qishni bilmayman, debdi. Shunda cho'pon unga "E bolam, hatto qo'y boqish uchun ham o'qish kerak", debdi.

Ey farzand, faraz qil, agar cho'pon o'qishni bilmaganida o'zini ham, qo'ylarini ham halok qilgan bo'lar edi.

“RASMLARNI MATNGA RAQAMLAR ORQALI MOSLASHTIRING”

1

Qadim zamonda o'qish va yozishni yomon ko'radigan bir bola bo'lgan ekan.

4

Bola yozuvni o'qiy olmabdi va to'g'ri narigi sohilga qarab yuribdi.

5

Ko'priknng o'rtasiga kelganda ko'prikn sinib, bola suvga tushib ketibdi.

3

Yurib-yurib uncha chuqur bo'lmagan bir daryo sohiliga yetibdi.


6

Shu orada qo'ylarini o'tlatib yurgan bir cho'pon kaltagini uzatib, bolani suvdan chiqarib olibdi.

2

Bir kuni u uylari yaqinidagi o'tloqdan qo'ziqorin terib kelish uchun uydan chiqibdi.

1




4



5




3



6



2



“RASMLARNI MATNGA ALIFBO TARTIBIDA MOSLASHTIRING

1

Qadim zamonda o'qish va yozishni yomon ko'radigan bir bola bo'lgan ekan.

4

Bola yozuvni o'qiy olmabdi va to'g'ri narigi sohilga qarab yuribdi.

5

Ko'prikning o'rtasiga kelganda ko'prik sinib, bola suvga tushib ketibdi.

3







Yurib-yurib uncha chuqur bo'lmagan bir daryo sohiliga yetibdi.

6

Shu orada qo'ylarini o'tlatib yurgan bir cho'pon kaltagini uzatib, bolani suvdan chiqarib olibdi.

2

Bir kuni u uylari yaqinidagi o'tloqdan qo'ziqorin terib kelish uchun uydan chiqibdi.




“RASMLARNI MATNGA RAQAMLAR ORQALI MOSLASHTIRING”

1

Qadim zamonda o'qish va yozishni yomon ko'radigan bir bola bo'lgan ekan.

1



2

Bir kuni u uylari yaqinidagi o'tloqdan qo'ziqorin terib kelish uchun uydan chiqibdi.

2



3

Yurib-yurib uncha chuqur bo'lmagan bir daryo sohiliga yetibdi.

3



4

Bola yozuvni o'qiy olmabdi va to'g'ri narigi sohilga qarab yuribdi.

4



5

Ko'priknig o'rtasiga kelganda ko'priknig sinib, bola suvga tushib ketibdi.


5



6

Shu orada qo'ylarini o'tlatib yurgan bir cho'pon kaltagini uzatib, bolani suvdan chiqarib olibdi.

6



“VOQEALARNI KETMA-KETLIGINI TOPING” METODI

O‘qituvchi
matnga oid
rasm yoki
suratlar
tanlaydi.



O‘quvchilar
rasmga qarab
matnning
mazmunini
taxmin
qilishadi.



Matn
o‘qilgach,
rasm bilan
taqqoslash
ishlari amalga
oshiriladi

“VOQEALARNI KETMA-KETLIGINI TOPING” METODI

O‘quvchilarga voqealar ketma-ketligini rasmlar asosida ifodalashni topshiriq qilib berish mumkin.



“VOQEALARNI KETMA-KETLIGINI TOPING” METODI




“VOQEALARNI KETMA-KETLIGINI TOPING” METODI



O‘quvchilarga voqealar ketma-ketligini rasmlar asosida ifodalashni topshiriq qilib berish mumkin.



“TO‘RT TOMON” METODI



“BESHINCHISI ORTIQCHA” METODI

Maqsad: Qahramonlarning sifatlarini tahlil qilish, tanqidiy fikrlashni o‘stirish.



Qo‘llash tartibi:

O‘qituvchi doskaga yozadi:
**Mehribon – Sabrsiz –
To‘g‘riso‘z – Mehribon –
Shirinso‘z – Yordamchi.**

O‘quvchilar qahramonga tegishli bo‘lmagan “**ortiqcha**” so‘zni topishadi va nima uchunligini izohlashadi.

Natija: O‘quvchilar qahramon xarakterini tushunish va tahlil qilishni o‘rganadilar.

“BESHINCHISI ORTIQCHA” METODI



“ ... kabi ” metodi

MAQSAD

O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va olgan ma’lumotlarini eslab qolish va uni kontekstda qo‘llashga o‘rgatish.



O‘quvchilar o‘zlari haqida yoki ixtiyoriy mavzuda gap yoki matn tuzadilar. Gap yoki matnda mashhur shaxslarning va o‘zlari o‘qigan hikoyalaridagi qahramon ismlarini ko‘proq qo‘llash talab etiladi. Bu qahramonlar ismlaridan so‘ng kabi so‘zi ishlatilishi lozim.



Masalan: “ Mening ismim Dilnoza. Men Navoiy bobomiz kabi g‘azallar yoza olmasam ham uni o‘zimga Zaxiriddin Muhammad Bobur kabi o‘zimga ustoz deb bilaman, she‘riyatni juda ham yoqtiraman. Ashurali Jo‘rayevning “Kichik ustoz” hikoyasidagi Ozodbek kabi shahmat ustalariga juda ham havas qilaman. Anvar bilan Akbarlar kabi ikki nafar o‘g‘lim shahmat o‘ynashga qiziqadi va ular ham o‘rganishni boshlaganlar. Feruza kabi qiziqqon eng kichik farzandim shahmat o‘ynashni akalaridan ham ko‘proq o‘rganib olayapti.....

“ ... kabi ” metodi



1. Guruh




2. Juftlikda



**3. Individual tarzda
(uyga vazifa sifatida
berilganda)**

“ Danakning mag‘zi ” metodi



Qo‘llanilishi:

- Matn o‘qiladi.
- O‘quvchilar matn ichidan eng asosiy deb hisoblagan bitta gapni tanlaydilar.
- Shu gapdagi eng muhim deb xisoblagan bitta so‘z birikmasini tanlaydilar.
- So‘z birikmasidagi eng asosiy so‘zni tanlaydilar.
- Nima uchun aynan shu gapni tanlaganliklarini izohlab beradilar.

finish

O'quvchilarni o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, tahlil qilish, mulohaza yuritish va baholashga o'rgatish jarayonida, aynan, sizning o'quvchilaringiz bilan qanday muammolar bor? PIRLS xalqaro baholash dasturida muvaffaqiyatli ishtirok etishlarida qanday to'siqlar bor? Siz bu to'siqlarni yengib o'tishda qanday metodlardan foylanmoqdasiz yoki foydalanmoqchisiz? Fikringizni [TRM Metodik yordam | Muloqot guruhida](#) yozib qoldiring. Sizning fikringiz biz uchun muhim.



Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi

Metodik yordam

Muloqot guruhi

